

GLOBALASHUV DAVRIDA MUSIQA SAN'ATI MIGRATSIYASI JARAYONLARINING MADANIYATLAR O'ZGARISHIDAGI TA'SIRI



Raximov Nurillo Narzullayevish

Guliston davlat pedagogika instituti v.v.b. dotsenti

Annotatsiya: maqolada aholi migratsiyasining musiqa madaniyatlarining o'zaro ta'siri hamda uning salbiy va ijobiy tomonlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, musiqa madaniyati, kuy va qo'shiqlar, musiqa asbobi, tashqi va ichki, turizm, shahar-qishloq, doimiy-mavsumiy,

Jahon sanoati va qishloq xo'jaligi rivojlanib, mamlakatlararo integratsion jarayon kuchayib borgan sari, aholi migratsiyasi tobora jadallashib bormoqda. Rivojlangan va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o'rtasidagi tafovutlarning uzluksiz chuqurlashib borayotgani ushbu jarayonlarning jadallashishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Aholi migratsiyasi kishilik jamiyati taraqqiyotining bugungi jarayonida migratsiyaning o'ziga munosib ish va yuqori daromad topish maqsadida amalga oshirilgan alohida turi bo'lib, iqtisodiyoti og'ir ahvolda bo'lgan kam rivojlangan mamlakatlarda bandlik va ish haqinigi o'tkir muammolarini hal etishning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Tabiiyki, siyosiy mustaqillikka erishgan, lekin ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda o'tmishdan qolgan merosning og'ir muammolarini uzil-kesil hal etish zaruratiga duch kelgan O'zbekiston ham XX asrning fenomeni bolgan – mehnat migratsiyasi jarayonlaridan chetda qolib ketmayapti.

Migratsiya (lotincha: migratio — ko'chaman, joyimni o'zgartiraman): aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishiga aytiladi...

Aholi migratsiyasi — aholining yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq ko'chishi. Aholi migratsiyasi aholining muhim muammolaridan biri bo'lib, unga kishilarning oddiy mexanik ko'chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko'p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Aholi migratsiyasi, aholini joylashishi, yerni xo'jalik jihatdan o'zlashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, irq, tillar va xalqlarning paydo bo'lishi va aralashib ketish jarayonlari bilan bog'liq.

Yo'nalishiga ko'ra tashqi aholi migratsiyasi va ichki aholi migratsiyasiga farqlanadi. Tashqi aholi migratsiyasi mamlakatdan chiqib ketish (muhojirlik), ichki migratsiyasi esa mamlakat doirasida, viloyat va tumanlararo yashash joyining o'zgarishi. Migratsion jarayonlarda ishtirok etuvchilar — migrant (muhojir)lar, migratsiya oqimi shakllanuvchi hudud — migrantlar chiquvchi, ular borgan hudud — migrantlar o'rnatiluvchi region deyiladi. Muayyan mamlakatdan boshqa biron-bir mamlakatga aholining ko'chib ketish jarayoni emigratsiya, unda ishtirok etganlar esa emigrantlar deyiladi. Va, aksincha biron bir boshqa mamlakatdan ma'lum mamlakatga aholining ko'chib kelishi immigratsiya, unda ishtirok etganlar immigrantlar (kelgindilar) deyiladi.

Aholi migratsiyasi doimiy (turar joyni uzil-kesil o'zgartirish), vaqgincha (shartnoma asosida ma'lum muddatga ishga, o'qishga va boshqa sabablar bilan mamlakatdagi bir ma'muriy-hududiy birlikdan boshqasiga borish, yoxud xorijga ketish), mavsumiy (iqtisodiyot tarmoqlari — qishloq xo'jalik, undiruvchi sanoat sohasi yumushlari, davolanish, dam olish va boshqa sabablarga ko'ra ko'chish), mayatniksimon (mokisimon) (ertalab ishga, o'qishga ketib, kechqurun uyiga qaytib kelish) migratsiya turlari bo'ladi. Ma'lum vaqt davomida hududga ko'chib kelgan va ko'chib ketgan kishilar soni o'rtasidagi farq migratsiya saldosi deyiladi.

Ba'zan migratsiyaga turizm, kurortga borish, ziyorat, shuningdek mokisimon qatnovchilarni ham kiritadilar, lekin turar joyni o'zgartirmagani uchun ularni Aholi migratsiyasiga kiritish mumkin emas.

Qishloq aholisi hisobiga shaharlarda yashovchi aholining to'xtovsiz o'sib borish tendensiyasi ham mavjud. Qishloqlarda yashash sharoitining shaharlarga nisbatan ma'lum darajada noqulayligi,

uning ayniqsa yoshlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlardan to'la qondira olmasligi bu tendensiyaga sabab bo'ladi.

Aholi migratsiyasi jarayoniga tarixiy va milliy an'analar ham ta'sir ko'rsatadi. O'rta Osiyo xalqlarida, jumladan o'zbeklarda tug'ilib o'sgan joyga mehri balandligidan migratsiyaga moyillik ancha sust^[1]

Aholi migratsiyasi murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, ushbu fenomen hozirgi kunda jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bizning davlatimiz global migratsion jarayonda emigrant davlat sifatida ishtirok etayotganini millionlab fuqorolarimizning ta'lim olish va mehnat qilish maqsadida chet davlatlarga migratsiya qilayotgani misolida keltirish mumkin.

Hozirgi kunda yurtimizda nafaqat mehnat migratsiyasi, balki ta'lim, sog'liqni tiklash, kasb egallash maqsadida va hatto nikoh migratsiyasi ham rivojlanib bormoqda.

Migratsiyaning ko'p ijobiy taraflari bo'lgani kabi salbiy xususiyatlari ham mavjud. Shulardan biri sifatida aholi migratsiyasi bilan bog'liq axloqiy muammo sabab migratsiyaga ketish holatlarini keltirib o'tish mumkin.

Bugungi kunda yoshlarning rivojlangan davlatlarga ta'lim maqsadida migratsiya qilishi ko'paygani quvonarli holat, lekin ularning boshqa davlatda ta'lim olishdan ko'zlagan niyati o'qishni tugatgach, o'sha mamlakatda ishlab qolish hisoblanadi. Bu ham bizning davlat kelajagi uchun katta yo'qotishdir. Biroq boshqa tomondan esa yoshlar milliy qadriyatlar va axloqiy qarashlarimizni o'zgartirishi mumkinligi ham muammoli vaziyat hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, turli sabablar bilan migratsiya jarayoning ishtirokchisi bo'lib qolayotgan yoshlar o'z-o'zidan musiqa madaniyati migratsiyasi qatnashchilariga aylanib qolmoqdalar.

Bizga ma'lumki, dunyoda qancha millat va elatlar mavjud bo'lsa, shuncha miqdorda musiqa madaniyatining o'ziga xos va mos janr hamda shakllari mavjud. Albatta, aholi migratsiyasi vaqtida turli-tuman millatlar musiqa madaniyatlarining ham "migratsiya" jarayoni vijudga keladi. Bir davlatdan boshqa bir davlatga borgan millat vakillari o'zlari bilan musiqa madaniyatini ham olib boradilar. Bu, jarayon milliy kuy va qo'shiqlarda, yoki turli xil milliy cholg'u asboblari amalga oshiriladi. Ma'lum vaqt o'tishi bilan Vatan, ota-ona, qavm-qarindosh, farzandlar, yoru-birodarlar sog'inchi o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Musiqa san'ati shunday biyuk xilqatki, inson o'zida kechayotgan his-tuyg'ularga berilgan holda beixtiyor biror bir ohangni xirgoyi qilib yuboradi. Yoki, biror bir cholg'u asbobini qo'lga olib chala boshlaydi. Bu holat bir necha vaqtlar davom etishi mumkin. Insonda ko'nikuvchanlik holati mavjud ekan bu his-tuyg'ular astsa-sekinlik bilan unutila boshlanadi. Uning o'rnini albatta boshqa muhitdagi boshqa ohanglar egallay boshlaydi.

Emigrantlar avvalambor til o'rganishni birinchi maqsad qilib qo'yadilar. Til o'rganib bo'linganidan so'ng, shu millatning qo'shiqlarini kuylay boshlaydilar. Astsa-sekinlik bilan cholg'u asboblari chalishga bo'lgan qiziqish paydo bo'la boshlaydi va bu jarayon faoliyatga olib keladi. Boshqa mamlakatda yashay boshlagan inson shu mamlakatning urf-odatlariga o'rgana boshlaydi. Bu jarayonning uzoq davom etishi o'z milliy musiqa san'atini sekin-astalik bilan unitishga olib keladi. Lekin shuni alohida e'tiborga olish kerakki, migratsiya bo'lgan aholining orasida musiqa san'ati ahillarining borligini hisobga oladigan bo'lsak, ular o'z sozlari va ovozlari bilan o'zga yurtlarda o'z milliy musiqa san'atini unitmasdan, o'sha yurt aholisining bayramlarida, to'y va xursandchilik kunlarida musiqiy chiqishlar qilmoqdalar bu bilan ular o'z milliy musiqa san'atini targ'ib ham qilib kelmoqdalar.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, o'z yurtimizda yashayotgan musiqa san'ati namayondalari ham musiqa san'atining tashqi migratsiyasiga o'z "hissa"larini qo'shib kelmoqdalar. San'atda yangi ijod namunalarini yaratishni istayotgan san'atkorlar o'zga yurt va millat qo'shiqlari va kuylarining ijrosi bilan shug'ullanib, o'z millat vakillari va yoshlarining oz bo'lsada o'z milliy musiqa san'atidan yiroqlashtirmoqdalar. Bugungi kunda o'z milliy musiqa san'atini chetga surib, qo'lga "gitara" olib, o'zga millat qo'shiq va kuylarini ijro etayotgan yoshlarni ko'plab uchratish mumkin. Bunga bizning hech qarshiligimiz yo'q. Lekin, avval o'z milliy musiqa san'atini o'rganib, keyin chet el musiqa san'atiga murojaat qilsak maqsadga muvofiq bo'lar edi, deb o'ylaymiz. Bu barcha san'at oliy o'quv yurtlari va umumta'lim maktablari musiqa dasturlarida aytib o'tilgan.

Aholi migratsiyasi o'z o'rnida millatlar musiqa san'atlarining integratsiyasiga olib kelmoqda. Bu esa, madaniyatlarning bir-biri bilan omuxtalashib ketishiga sabab bo'ladi. Bu jarayonning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari mavjudligi hech kimga sir emas. Bu jarayon yoshlarning axloqiy tomonlariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bunda yoshlar o'z milliy madaniyatlarini unutib, hech bir millatning milliy qadriyatlariga to'g'ri kelmaydigan salbiy holatlarning ishtirokchilariga aylanib qolmoqdalar. Ayniqsa buni til jarayoni bilan taqqoslasak, o'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarni va ulardan kunlik hayotimizda qo'llayotganimizni har kun, har soniya kuzatishimiz mumkin. Agarda bu holatni musiqa san'ati bilan solishtiradigan bo'lsak, turli millatlarning musiqa san'ati durdonalarini boshqa millat vakillari tomonidan buzib ijro etilishi kechirib bo'lmas holatdir. Xalqimiz orasida "chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin" degan naqliga muroojaat qiladigan bo'lsak, bu jarayon o'z kasbining ustalari tomonidan amalga oshirilsa maqsadga mivooffiq bo'lar edi, deb hisoblaymiz. Lekin, har bir millatning kuy va qo'shiqlari boshqa millat vakillari tomonidan o'z o'rnida, talab darajasida ijro etilishi shu millatga bo'lgan hurmatning bir ko'rinishidir.

Xulosa o'rnida shunday fikrga kelishimiz mumkinki, aholi migratsiyasi bu, musiqa madaniyati migratsiyasiga olib keladi. Shunga ko'ra bugungi kunda millatlarning o'zaro munosabatlari tufayli musiqa madaniyati migratsiyasi millatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlik aloqalari mustahkamlanadi, bir-birlarining musiqa madaniyatiga bo'lgan qiziqishlari ortadi, yangidan-yangi umummilliy musiqiy qadriyatlarning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Sadullayeva Jamilaxon. "Migratsiya muammosining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining o'zbek olimlari tomonidan o'rganilishi". "Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot" jurnalining 3-soni. 22.11.2023.
2. Gulyamov S.S. Muhammedov M.M. "Mehnat migratsiyasi va uning salbiy oqibatlarini qanday bartaraf etish yo'llari bor?" Ijtimoiy hayot. 24-noyabr, 2020.